

## TARJIMONLIK SAN'ATI: TARJIMONLIK TARIXI, HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI VA KELAJAGI

**Xushvaqtova Amina Anvar qizi**

*1-bosqich talabasi, Tarjimonlik fakulteti,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.*

**Bozorova Vasila Ilhom qizi**

*Ilmiy rahbar: Ingliz tili amaliy tarjima kafedrası stajor- o'qtuvchisi,  
Tarjimonlik fakulteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada tarjimonlik san'ati va uning o'tmişdagi, hozirgi kundagi hamda kelajakdagi o'rni, ahamiyati, istiqbollari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolari haqida so'z yuritiladi. Tarjimonlik sohasiga qaratilayotgan e'tibor, bugungi dolzarbligi, sun'iy intellektning ushbu sohaga ta'siri va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari yoritiladi. Shuningdek, sohadagi muammolar va ularni bartaraf etish choralari, tarjimonlarga qo'yilayotgan talablar, universitetlarda tarjimon tayyorlash tizimi va mavjud sharoitlar haqida fikr yuritiladi. Tarjimonlik sohasining rivojlanishi uchun malakali kadrlar tayyorlash, amaliy mashg'ulotlarni kengaytirish va xalqaro metodlardan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *tarjimonlik, tarjima turlari, xalqaro konferensiyalar, malakali mutaxassislar, sun'iy intellekt, O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, zamonaviy metodlar.*

### KIRISH:

Tarjima – bu bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi bo'lib, millatlararo muloqotning eng muhim vositalaridan biridir. Tarjimonlik san'ati insoniyat tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, qadimdan hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Tarjimonlik san'ati yillar davomida rivojlanib, hozirda turli sohalarda keng qo'llanilmoqda. Xalqaro hamkorlik, diplomatiya, ilm-fan va biznes sohaslarining taraqqiy etishi tarjimonlarga bo'lgan talabni oshirmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tarjima tizimlarining paydo bo'lishi tarjimonlik sohasining kelajagiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada tarjimonlik tarixiga nazar tashlanib, bugungi kundagi ahamiyati va kelajak istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Tarjimonlik tarixi

Tarjimonlik insoniyatning yozma va og'zaki muloqoti rivojlanishi bilan shakllangan qadimiy sohalardan biridir. Tarjimonlikning ildizlari qadimgi sivilizatsiyalar davriga borib taqaladi. Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Xitoyda birinchi yozma matnlar paydo

bo'lgan va bu matnlarning boshqa tillarga tarjima qilinishi zaruratga aylangan. Masalan, qadimgi Mesopotamiyada turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida diplomatik yozishmalar tarjimonlar vositasida amalga oshirilgan. Bu sohaning tarixi quyidagicha bosqichlarga bo'linadi:

Qadimgi davr: Tarjimaga ehtiyoj ilk sivilizatsiyalar paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Miloddan avvalgi III ming yillikda Mesopotamiyada ikki tilda yozilgan tosh bitiklar topilgan. Misr iyerogliflari yunon tiliga tarjima qilingan Rosetta toshi (M.A. 196-yil) bu sohaga bo'lgan ehtiyojning qadimiyligini isbotlaydi. Qadimgi Yunoniston va Rim imperiyalarida tarjimonlik fan sifatida shakllana boshlagan. Yunon faylasuflari va olimlarining asarlari keyinchalik lotin tiliga tarjima qilingan. Aleksandriya kutubxonasida ko'plab tarjima ishlari olib borilgan, bu esa ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan.

O'rta asrlar: Tarjima ilmi asosan diniy va ilmiy asarlarni tarjima qilish orqali rivojlangan. Ushbu davrda arab va yunon tillari o'rtasidagi tarjimalar ilm-fanning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Tarjimonlik diniy matnlar tarjimasi bilan bog'liq holda rivojlangan. Masalan, Qur'on, Injil va boshqa muqaddas kitoblar turli tillarga tarjima qilingan. Ayniqsa, islom dunyosida arab tilidan fors va lotin tillariga tarjimalar keng tarqalgan. Bag'doddagi "Bayt al-Hikma" (Donishmandlar uyi) markazi mashhur tarjima markazlaridan biri bo'lgan.

Yangi davr: Ilm-fan, adabiyot va diplomatiyaning rivojlanishi bilan tarjimonlikning ahamiyati ortgan. Tarjimonlar xalqaro muloqotning muhim vakillariga aylangan. Tarjimonlik hozirgi kunda nafaqat madaniyatlararo muloqot vositasi, balki diplomatiya, iqtisodiyot, texnologiya va xalqaro huquq sohalarining ajralmas qismiga aylandi. Texnologik taraqqiyot natijasida avtomatik tarjima vositalari (masalan, Google Translate) paydo bo'ldi, ammo inson tarjimonlarining roli hali ham katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy davr: Bugungi kunda tarjimonlik turli texnologiyalar bilan boyitilgan, tarjimonlarga bo'lgan talab esa sezilarli darajada oshgan. Tarjimonlik faqat so'zlarni tarjima qilish emas, balki madaniyatlar, tafakkur tarzlar va tushunchalarni ham bir-biriga yetkazish san'atidir. Bu soha zamonlar davomida rivojlanib, insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shib kelmoqda.

O'zbekistonda tarjimonlik

O'zbekistonda tarjimonlik sohasi mustaqillikdan keyin jadal rivojlana boshladi. Bugungi kunda ushbu yo'nalishda bir qancha muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda tarjimonlar tayyorlovchi bir nechta yetakchi universitetlar mavjud. Jumladan:

O'zDJTU (O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti) TDO'TAU (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti) TDSHU (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti)

NXU (Nukus davlat universiteti)

Ehtiyoj va muammolar:

Ingliz tilidan tarjima qiluvchi mutaxassislar yetarli darajada mavjud. Nemis, xitoy, yapon, koreys va fransuz tillari bo'yicha yuqori malakali tarjimonlar yetishmovchiligi sezilmoqda. Tarjimonlarning amaliy tajribasi yetarli emas. Ish haqi pastligi sababli malakali tarjimonlarning xorijga ketishi kuzatilmoqda.

Tarjima usullari va zamonaviy metodlar

Hozirgi kunda tarjimon tayyorlash bo'yicha turli metodlar mavjud:

1. Kommunikativ tarjima usuli – Matnning grammatik jihatidan ko'ra kontekst va mazmun bo'yicha to'g'ri va tushunarli bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

2. Skopos nazariyasi – Matnning maqsadi va vazifasi muhim o'rin tutadi. Bu usul Germaniyada keng qo'llaniladi.

3. Audiovizual tarjima – Kino, multfilm va videokontent tarjimasi uchun mo'ljallangan. Subtitrlash, dubbing, voice-over kabi usullarni o'z ichiga oladi.

4. Madaniy moslashtirish metodi – Matnni aynan tarjima qilish emas, balki qabul qiluvchi auditoriyaga moslashtirish asosiy maqsad bo'ladi. Marketing va jurnalistika sohalarida qo'llaniladi.

Tarjimonlikning kelajagi

Kelajakda tarjimonlik sohasi texnologik taraqqiyot va zamonaviy tendensiyalar ta'sirida rivojlanadi:

Sun'iy intellektning ta'siri:

Tarjimonlik sohasida sun'iy intellekt (AI), mashina tarjimasi va neyron tarjima tizimlari tez rivojlanmoqda. Bu avtomatik tarjima vositalarini yanada takomillashuviga olib kelmoqda. Biroq inson tarjimonlari hali ham murakkab matnlar, kontekst va madaniy tafovutlarni to'g'ri aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Google Translate, DeepL kabi dasturlar rivojlanib bormoqda. Biroq, murakkab matnlar uchun inson tarjimonlariga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qoladi.

Mutaxassis tarjimonlarga talabning ortishi: Xalqaro diplomatiya, biznes, tibbiyot, huquq va texnik tarjima sohalarida yuqori malakali tarjimonlarga ehtiyoj tobora oshmoqda. Soha bo'yicha chuqurlashish – ya'ni tibbiyot, yuridik, texnik, moliyaviy tarjimalar kabi maxsus sohalarida malakali tarjimonlarga talab ortmoqda.

Kelajakda umumiy tarjimalardan ko'ra mutaxassislik bo'yicha tarjima ustuvor bo'ladi.

Tarjimonlar uchun zamonaviy kurslar: Kelajakda onlayn tarjimonlik maktablari va maxsus kurslar keng tarqalishi kutilmoqda.

O'zbekistonda tarjimonlikning kelajagi O'zbek tiliga bo'lgan global e'tibor oshmoqda

So'nggi yillarda O'zbekistonning xalqaro maydondagi faolligi oshgani sayin, o'zbek tiliga va o'zbek tilidan tarjimalar soni ko'paymoqda. Bu tarjimonlar uchun katta imkoniyat yaratadi.

Talim tizimidagi islohotlar

O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida tarjimonlik fakultetlari soni ortmoqda, yangi o'quv dasturlari, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan tarjimonlik markazlari tashkil etilmoqda.

Adabiy tarjimalarga e'tibor

O'zbek yozuvchilari asarlari boshqa tillarga, xorijiy adabiyotlar esa o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda. Bu madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash bilan birga, tarjimonlar uchun ijodiy imkoniyatlarni ham kengaytiradi.

Freelance tarjimonlar uchun imkoniyatlar

Raqamli iqtisodiyotda onlayn ishlash imkoniyatlari ko'paygan. Ko'p o'zbek tarjimonlari xalqaro freelance platformalarda faoliyat yuritib, jahon bozorida o'z o'rnini topmoqda.

Xulosa

Tarjimonlik san'ati bugungi kunda ham dolzarb soha bo'lib, xalqaro muloqot, biznes, ilm-fan va madaniyat almashinuvida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda tarjimonlikni rivojlantirish uchun amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish zarur. Kelajakda tarjima sohasi inson omili va texnologiyalar uyg'unligida shakllanib, yanada yuqori bosqichga ko'tariladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xabar.uz ;
2. researchgate.net;
3. yoshlikjurnali.uz;
4. namdu.uz;
5. uzswlu.uz;
6. uz.wikipedia.org;
7. cyberleninka.ru;
8. akademiya.edu;
9. incience.uz;
10. scholar.kokanduni.uz; 11.6-sinf tarix Toshkent-2013